



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG‘I

2023. 28. 04 № 319-11-5.2

Jizzax sh.

**Universitet kengashining 2023-yil
19-iyuldagi n.t. 3-son qarori ijrosini
ta’minlash to’g’risida**

Universitet kengashining 2023-yil 19-iyuldagi “Jizzax davlat pedagogika universitetida ta’lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish hamda talabalar bilimini nazorat qilish Tartibi (Akademik qoidalar)” to’g’risidagi n.t. 3-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Universitet kengashining 2023-yil 19-iyuldagi “Jizzax davlat pedagogika universitetida ta’lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish hamda talabalar bilimini nazorat qilish Tartibi (Akademik qoidalar)” to’g’risidagi n.t. 3-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor (B.To‘xtamishev), Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (F.To‘rayev), Registrator ofisi boshlig‘i (X.Xamzayev), fakultet dekanlari, magistratura bo‘limi va sirtqi bo‘lim boshliqlariga:

2.1. Universitetda 2023-2024-o‘quv yilidan “Jizzax davlat pedagogika universitetida ta’lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish hamda talabalar bilimini nazorat qilish Tartibi (Akademik qoidalar)” asosida o‘quv jarayoni tashkil etilishi ta’minlansin.

2.2. Universitetda 2023-2024-o‘quv yilining birinchi haftasida “Jizzax davlat pedagogika universitetida ta’lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish hamda talabalar bilimini nazorat qilish Tartibi (Akademik qoidalar)” bo‘yicha universitetning barcha professor-o‘qituvchilari va talabalari uchun seminarlar tashkil etilsin.

2.3. 2023-2024-o‘quv yilidan akademik qarzdor talabalarning qayta o‘zlashtirish jarayonini tashkil qilish mazkur tartib asosida tashkil etilishi belgilansin.

3. O'quv-uslubiy ta'minot bo'limi boshlig'i (A.Abduraxmonov)ga:

3.1. Universitetda o'quv jarayonini doimiy ravishda tahlil qilish asosida "Jizzax davlat pedagogika universitetida ta'lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish hamda talabalar bilimini nazorat qilish Tartibi (Akademik qoidalar)"ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Universitet kengashiga takliflar kiritilishi ta'minlansin.

4. Universitet kengashining 2023-yil 19-iyuldagi "Jizzax davlat pedagogika universitetida ta'lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish hamda talabalar bilimini nazorat qilish Tartibi (Akademik qoidalar)" to'g'risidagi n.t. 3-son qarori bilan soha prorektorlari, bo'lim boshliqlari, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlari tanishtirilsin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor B.To'xtamishev zimmasiga yuklatilsin.

Asos: Universitet kengashining 2023-yil 19-iyuldagi "Jizzax davlat pedagogika universitetida ta'lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish hamda talabalar bilimini nazorat qilish Tartibi (Akademik qoidalar)" to'g'risidagi n.t.-3-son qarori

Rektor



SH.S.Sharipov

Universitet Kengashining 2023-

yil " " -sonli

yil “ ” -sonli
qarori asosida Kengash raisi,
rektor _____ prof.

qarori asosida Kengash raisi,
rektor _____ prof.

rektor _____ prof.

Sh. Sharipov

2023-yil



Jizzax davlat pedagogika universitetida ta’lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish hamda talabalar bilimini nazorat qilish

TARTIBI

(Akademik qoidalar)

Mazkur Tartib O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son **Farmoni**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi 824-son qarori bilan tasdiqlagan **"Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"**gi NIZOM asosida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimini belgilaydi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib 2023-2024-o'quv yilidan boshlab ta'limning kredit-modul tizimida o'qiydigan barcha talabalar uchun Universitetda ta'lim jarayonini tashkil etish hamda talabalar bilimini nazorat qilish tartibini (keying o'rinlarda- Akademik qoidalar) belgilaydi.

2. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va Universitet talabalari (bundan buyon matnda talabalar deb yuritiladi) bilimini nazorat qilishning maqsadi - yuqori malakali, raqobatbardosh, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning talablariga hamda zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash, shuningdek talabalarda mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, ta'lim sifati shaffofligini ta'minlagan holda o'quv jarayonlarini tizimli tahlil qilish va umumkasbiy hamda ixtisoslik kompetensiyalarini rivojlantirish, talabalar bilimini baholashning obyektiv va adolatli tizimini joriy etishdan iborat.

3. Ta'lim jarayonini tashkil etish va talabalar bilimini nazorat qilishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiq talabalarda tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik, bilimlarni baholashda shaffoflikni ta'minlash;

o'quv materialining talabalar tomonidan tizimli ravishda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurs manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

talabalar bilimini ob'yektiv va adolatli baholash hamda uning natijalarini o'z vaqtida e'lon qilish;

talabalarining o'quv rejasi doirasida kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga (raqamli yoki elektron shaklga o'tishga) sharoit yaratish.

2-bob. Asosiy tushunchalar

4. Ushbu Akademik qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

GPA (Grade Point Average) — talabaning dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\text{GPA} = \frac{K_1 * U_1 + K_2 * U_2 + K_3 * U_3 \dots + K_n * U_n}{K_1 + K_2 + K_3 \dots + K_n}, \quad \text{bunda:}$$

K — har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U — har bir fan/modul bo'yicha talaba olgan ball;

akademik mobillik — universitet talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta'lim muassasasiga o'qish maqsadida borishi;

mobillik dasturi — universitet bilan boshqa OTM o'rtasida o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

kredit — ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan/modul bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun sonlarda ifodalanadi;

oliy ta'lim muassasasi — belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta'lim va malaka to'g'risidagi hujjat beruvchi muassasa;

kreditlarni berish — malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;

kreditlarni ko'chirish — talabalarining akademik mobilligini ta'minlash maqsadida universitet ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirish va tan olish;

kredit to'plash — o'quv reja va o'quv dasturlarini o'zlashtirish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;

talabani shaxsiy ta'lim trayektoriyasi — talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

ta'lim dasturi — oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari va milliy malakalar ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan malaka talablari, o'quv reja, o'quv dasturlari va tegishli metodik ko'rsatmalardan iborat me'yoriy-uslubiy hujjatlar majmuasi;

ta'lim dasturi katalogi — oliy ta'lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimi, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, o'quv rejalar, o'quv dasturlari, xizmatlar va resurslar tavsifi to'g'risida axborot;

ta'lim natijalari — talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

o'quv yuklamasi — talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs ishi, amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

Registrator ofisi — ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, talabalar harakatini muvofiqlashtirish, shuningdek, talabalarining barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, talabalar bilimini baholash hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi bo'lim;

transkript — ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

yo'zgi semestr — fanlardan akademik qarzdorlikni bartaraf etish maqsadida pullik asosida tashkil etiladigan o'quv davri.

3-bob. Talabani huquq va majburiyatlari

5. Talabalar Universitet Ustaviga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiq fan, texnika, zamonaviy texnologiya yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olish hamda Universitet tomonidan taqdim etiladigan qo'shimcha ta'lim xizmatlaridan foydalanish;

universitetning axborot-resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim resurslari va vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish;

universitet umumiy faoliyatiga va ta'lim jarayoniga oid bepul ma'lumotlar, axborotlar, maslahatlar hamda tushuntirishlar olish;

auditoriyalar, o'quv va ilmiy laboratoriyalar, kompyuter xonalari, ta'lim jarayoniga oid vositalardan o'rnatilgan tartibda bepul foydalanish;

universitet tomonidan ajratilgan limit doirasida Internet tarmog'i resurslaridan faqatgina o'quv va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanish;

ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yuzasidan o'z taklif-mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda Universitetning rahbariyati hamda tegishli tuzilmalariga bildirish va ularning ko'rib chiqilishini talab qilish;

ilmiy tadqiqot ishlarining barcha turlarida, konferensiyalar, anjumanlarda ishtirok etish, o'z ilmiy ishlarini nashrga, shu jumladan, Universitetning davriy nashrlariga ham taqdim etish;

universitetda qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish va ularning faoliyatida ishtirok etish;

tanlangan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha o'quv rejada mavjud fanlardan tashqari qiziqishlari doirasida yoki kasbiy malakasini oshirish maqsadida universitetda o'qitiladigan boshqa fanlarni o'z hohishiga ko'ra shartnoma asosida o'zlashtirish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akademik ta'tildan foydalanish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bir yo'nalishdan boshqasiga yoki universitetdan boshqa OTMga o'qishini ko'chirish;

universitet va fakultet miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etish;

ta'lim davrida shartnoma asosida talabalar turar joyidan foydalanish (mavjud sig'imi doirasida);

universitetdagi to'garaklar va boshqa tuzilmalar faoliyatida, shuningdek, universitet tomonidan talabalar uchun o'tkaziladigan tadbirlarda o'quv jarayonidan tashqari bo'sh vaqtlarida ishtirok etish;

universitet ma'muriyatining buyruq va farmoyishlari ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish.

6. Talaba sifatli va yuqori saviyada bilim olishi, tanlagan yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishish uchun zarur bo'lgan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa huquqlardan foydalanishga haqlidir.

7. Talaba o'z huquqlarini suiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

8. Talabalarga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

ta'lim olish jarayonida O'zbekistan Respublikasi Qonun hujjatlari talablariga, jamiyatning ahloqiy prinsiplariga, ma'naviy qadriyatlarga qat'iy rioya qilish;

universitetning Ustavi, Ichki tartib-qoidalari, Odob-axloq qoidalari, talabalar turar joylari qoidalari va mazkur Akademik qoidalar bilan tanishib chiqish hamda ularga qat'iy rioya qilish;

universitet dasturlari va o'quv rejalarida nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni vijdonan egallash;

o'quv rejalarida belgilangan o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida ishtirok etish, uzrli sabablarsiz qoldirmaslik, darsga kech qolmaslik yoki ishtirok etmaslik;

ta'lim jarayonida, shu jumladan o'quv dasturlarida nazarda tutilgan vazifalarni va topshiriqlarning barcha turlarini belgilangan muddatda va sifatli bajarish;

universitetning elektron ta'lim platformasida ta'lim olish uchun berilgan shaxsiy login va parollarni sir saqlash;

tegishli fan professor-o'qituvchisining o'quv dasturlarda nazarda tutilgan tashkiliy va uslubiy talablarini bajarish;

o'quv jarayonida, jumladan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarda etika qoidalariga amal qilish, o'zini munosib (professor-o'qituvchiga mashg'ulot o'tishga halaqit bermaslik, professor-o'qituvchiga va talabalarga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lmaslik va h.k.) tutish;

talaba kasalligi tufayli mashg'ulotlarda ishtirok eta olmagan bo'lsa, uch kun muddatda kasalligi to'g'risida guruh tyuterini ogohlantirishi va sog'aygandan keyin ma'lumotnoma Registrator ofisiga taqdim etishi shart.

professor-o'qituvchi tomonidan mashg'ulotlar o'z vaqtida boshlanmagan yoki sifatsiz o'tkazilayotgan taqdirda fakultet dekanatiga yoki universitet rahbariyatiga xabar qilish;

universitet hududida texnika xavfsizlik, yong'in yoki insonlar salomatligiga xavf tug'diruvchi boshqa holatlarda, shuningdek, universitet mulkiga zarar yetish xavfi yuzaga kelganda, zudlik bilan universitet xodimini xabardor qilish;

o'z kursdoshlari, talabalar, pedagoglar va boshqa xodimlar bilan xushmuomalada bo'lish, jamoat tartibiga rioya qilish;

universitet mulkidan oqilona va samarali foydalanish hamda asrab-avaylash;

o'quv intizomi va odob-ahloq qoidalariga rioya qilinmagan taqdirda dekanatga tushuntirish xati taqdim etish;

kiyinish madaniyatiga rioya qilish, tashqi ko'rinishi va yomon hulq-atvori bilan boshqalardan ajralib turmaslik;

universitetning ustav faoliyatini amalga oshirishiga hamda universitet xodimlarining o'z lavozim majburiyatlarini bajarishga bevosita yoki bilvosita to'sqinlik qiladigan harakatlardan tiyilish.

9. Talaba uzoq vaqt davomida o'quv mashg'ulotlarda ishtirok etmagan taqdirda, dekanat bu haqida talabaning ota-onalarini (yoki boshqa qonuniy vakillarini) xabardor qilish huquqiga ega.

Yuqorida keltirilgan majburiyatlarga rioya qilmagan talabalarga nisbatan jazo choralari (ogohlantirish, xayfsan) qo'llaniladi. Talabalarning mazkur qoidalaridan xabardor bo'lmasligi qo'llaniladigan jazo choralaridan ozod etmaydi.

4-bob. Ta'lim dasturi tuzilmasi

10. Ta'lim dasturi tarkibiga kiruvchi o'quv rejada o'zlashtiriladigan majburiy va tanlov fanlari (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar), ta'lim jarayoni jadvali, o'qish haftalari, davriyligi, o'quv yillari, semestrlar, nazariy va amaliy mashg'ulotlar, malakaviy amaliyotlar, attestatsiya, ta'tillar hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi. O'quv rejadagi har bir fan bo'yicha o'quv dasturlari ta'lim

dasturi tarkibiga kiradi. O'quv reja va o'quv dasturlari belgilangan tartibda ishlab chiqilib tasdiqlanadi.

11. Ta'lim dasturi ta'lim olish natijalarini ko'rsatgan holda bir akademik o'quv yiliga ko'pi bilan 60 kredit mos kelishini hisobga olib oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqiladi. Ta'lim dasturidagi me'yoriy-uslubiy hujjatlarda kreditlarning miqdori o'quv yuklamasi asosida ko'rsatiladi.

12. Talabalarning ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi hamda talab qilingan malakaga ega bo'lishi uchun talablar aniq belgilanadi. O'zlashtirish qoidalari tanlangan ta'lim dasturi bo'yicha o'qitishning turli bosqichlari uchun belgilangan kreditlar miqdorida yoki kreditlar oralig'ida ifodalanishi mumkin.

13. Ta'lim dasturining talabalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam berish uchun guruh tyuterlari hamda Registrator ofisi tomonidan maslahat va tushuntirishlar berib boriladi. Maslahat doirasida talabalarga ta'lim olish natijasida erishgan yutuqlar va tajribani tan olish imkoniyatlari tushuntiriladi.

14. Universitet ta'lim dasturi katalogi va o'qitish sharoitlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar hamda dolzarb axborotni universitet web-sahifasiga qulay yuklanadigan formatda o'quv yili boshlanishidan oldin joylashtirishi va e'lon qilib borishi shart.

15. Ta'lim dasturini bajarishga mas'ul professor-o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan o'qitish natijalari bilan dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashlari lozim. O'qitish natijalari, dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi ushbu konstruktiv bog'liqlik ta'lim dasturlariga qo'yiladigan muhim talab hisoblanadi.

5-bob. O'quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta'lim sifatini ta'minlash

16. O'quv jarayoni o'quv va nazorat turlari majmuini o'z ichiga oladi. O'quv jarayonida barcha turdagi auditoriya mashg'ulotlari, amaliy va mustaqil ishlarning tashkil etilishi nazarda tutiladi. Nazorat turlari talabaning o'quv rejasidagi tegishli fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishini va ularning natijalarini baholashni nazarda tutadi.

17. O'quv jarayoni talabalar, ish beruvchilar, professor-o'qituvchilar va ma'muriyat o'rtasida ochiq muloqot shaklida talabaga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim standartlarini inobatga olgan holda rejalashtiriladi. Ushbu jarayonda ish beruvchilar va talabalarning talab va istaklari muhokama qilinadi. Barcha manfaatdor tomonlar ta'lim dasturining yaratilishi va o'zlashtirilishi bo'yicha o'tkaziladigan muhokamaga jalb etilishi mumkin. Bunday bahslarda talabalar vakillari ovoz berish huquqi orqali ishtirok etishlari mumkin.

18. O'quv jarayonini rejalashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari va malaka talablari asosida o'quv rejalar, fanlar katalogi va o'quv dasturlarini kadrlar buyurtmachilari va mehnat bozori ehtiyojlari, mamlakat iqtisodiyot tarmoqlari talablari va zamonaviy ilg'or ta'lim tajribalari asosida ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash;

o'quv reja, o'quv dasturlar va fanlar katalogi asosida talabalar ehtiyojiga muvofiq ularning shaxsiy ta'lim traektoriyasini shakllantirish.

19. Semestr davomida talaba tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlar miqdori o'quv rejasiga muvofiq belgilanadi. Majburiy va tanlov fanlar tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori universitet tomonidan ishlab chiqilgan o'quv rejalarga muvofiq belgilanadi. Shaxsiy ta'lim traektoriyasi asosida tahsil olayotgan talabalar belgilangan tanlov fanlari doirasida fanlarni mustaqil tanlashi mumkin.

20. O'quv yili davomiyligi oliy ta'lim davlat ta'lim standartlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi.

Kredit-modul tizimida 1 kredit 30 akademik soat hisobidagi o'quv yuklamaga teng qilib olinadi. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun belgilab olingan miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. Shuningdek, bakalavriat va magistraturaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o'quv yuklamasi auditoriya soati va mustaqil ta'lim soatiga bo'linadi (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno). Kreditning akademik soatlardagi miqdori va o'quv yuklamasi miqdori Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlarida belgilanadi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining ikki semestrli o'quv yilida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi belgilanadi. Shaxsiy ta'lim traektoriyasi asosida tahsil olayotgan talabalar ham har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o'zlashtirishi va ushbu fanlar tarkibida o'quv rejadagi majburiy fanlar bo'lishi shart.

Kechki va sirtqi ta'lim shakllari hamda ta'lim sohasi xususiyatidan kelib chiqqan holda semestr va bir o'quv yilidagi kreditlar miqdori o'zgarishi mumkin. Semestr davomida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar hajmi o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi.

21. O'quv jarayonining monitoringi ta'lim olishning belgilangan natijalariga erishish, nominal mehnat hajmi hamda ularning haqqoniyligi va mosligini baholash maqsadida o'tkaziladi.

22. Ta'lim sifati samaradorligini ta'minlash universitet tomonidan amalga oshiriladigan bakalavriat ta'lim yo'nalish va magistratura mutaxassisliklari ta'lim dasturining vakolatli tashkilotlar tavsifnomalari va talablariga moslikni ta'minlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

23. Ta'lim sifatini oshirish va professor-o'qituvchilar o'rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida universitet kengashi qaroriga asosan talabalarga fan doirasida professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyati beriladi. Bunda talabalar ta'limni boshqarish axborot tizimi portali orqali o'quv semestri boshida 1 hafta muddat davomida o'zi tanlagan professor-o'qituvchining mashg'ulotida qatnashish uchun onlayn tarzda ro'yxatdan o'tadi.

24. Akademik qarzdor talabalarning tashabbusi bilan mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida yozgi semestr Universitet tomonidan odatda ta'til

vaqtida yoki semestrlar oralig'ida darslarga halaqit bermagan holda pulli asosda tashkil etiladi.

Yozgi semestrning davomiyligi o'quv jarayoni jadvali asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va kurslar bo'yicha belgilanadi.

Yozgi semestr quyidagi reglament asosida tashkil qilinadi:

talaba yozgi semestr boshlanguniga qadar Universitet Registrator ofisiga o'zining yozgi semestrda o'qishi istagini bildiradi va elektron tizim orqali ariza bilan murojaat qiladi;

Registrator ofisi ushbu talabalarga yozgi semestr uchun dars jadvalini tuzadi va talaba to'lov pulini to'laganidan so'ng darslarga kiritiladi;

Bitta fan uchun 8 nafardan kam bo'lmagan talaba yozgi semestrda o'qish istagini bildirsa, yozgi semestr uchun akademik guruh shakllantiriladi;

Agar bitta fan uchun yozgi semestrda o'qish istagini bildirgan talabalar soni 8 nafarga yetmasa yozgi semestr uchun akademik guruh shakllantirilmaydi;

Talabaning roziligiga asosan akademik qarzdor bo'lgan fanlarni kredit to'lovini amalga oshirgan holda boshqa kurs talabalari darsiga kirish orqali semestr davomida o'zlashtirish uchun ham ruxsat berilishi mumkin.

Yozgi semestrda fan doirasida o'quv rejadagi umumiy auditoriya soatining 20 foizi hisoblangan holda akademik qarzdor talabalarga dars mashg'ulotlari tashkil qilinadi hamda qolgan o'quv soatlari mustaqil ta'lim ko'rinishida o'zlashtirishga ruxsat beriladi.

Yozgi semestr amaldagi baholash tizimi asosida talabalar bilimini shaffof baholash tamoyiliga ko'ra tashkil qilinadi.

Yozgi semestrga professor-o'qituvchilar o'z ixtiyorlari asosida jalb qilinadi. Ularga soatbay asosida ish haqi to'lanadi.

Ta'lim shakllaridagi 1 kredit summasi yillik kontrakt summasini bir o'quv yilida to'planishik kerak bo'lgan umumiy kredit hajmiga bo'lish orqali amalga oshiriladi.

Bitiruvchi kurs talabalariga oxirgi semestr natijalari bo'yicha o'zlashtirilmagan fan(lar)ni qayta topshirish uchun yakuniy davlat attestatsiyasi boshlangunga qadar pullik asosda ruxsat beriladi.

Bitiruvchi kurs talabalari uchun yozgi semestrda talabalar soni 8 nafardan oshmagan taqdirda fan doirasida o'quv rejadagi umumiy auditoriya soatining 10 foizi hisoblangan holda akademik qarzdor talabalarga dars mashg'ulotlari tashkil qilinadi hamda qolgan o'quv soatlari mustaqil ta'lim ko'rinishida o'zlashtirishga ruxsat beriladi.

Yozgi semestrni o'quv rejalarida belgilangan malakaviy amaliyotlar va boshqa o'quv mashg'ulotlari hisobidan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

6-bob. Akademik mobillik va kreditlarni tan olish

25. Akademik mobillikni ta'minlash va talabaning kreditlari universitet tomonidan tan olinishida quyidagi hujjatlardan foydalaniladi:

fanlar katalogi;

belgilangan shakldagi ta'lim to'g'risidagi kelishuv, ma'lumotnoma va sertifikat.

Mazkur hujjatlar ta'lim olish natijalarini aks ettiradi va universitetga kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

26. Ta'lim to'g'risidagi kelishuvga muvofiq akademik mobillik doirasidagi talabaning barcha kreditlari oliy ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim dasturini o'zlashtirishda talabaga qo'shimcha topshiriqlarsiz hisobga olinadi.

27. Talaba universitet tavsiyasiga asosan qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasiga akademik mobillikni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni topshiradi. Universitet tomonidan talabaga belgilangan shakldagi transkript taqdim etiladi.

28. Talabaning akademik mobillik davrida ta'lim to'g'risidagi kelishuvga muvofiq o'zlashtirilishi belgilangan fanlar tarkibini universitet roziligisiz va u bilan kelishmasdan o'zgartirish mumkin emas. Xorijdagi hamkor oliy ta'lim muassasalari, markazlar va tashkilotlarning ta'lim dasturlarida belgilangan ta'lim olish natijalari universitetning ta'lim dasturi bo'yicha ta'lim olish natijalariga mos kelishi yoki ularni to'ldirishi lozim. Mobillik vaqtida akademik yil ko'rsatkichlari tahlil qilinadi va ushbu Akademik qoidalarga asosan kreditlar tan olinishi belgilanadi.

29. Qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasida talaba tomonidan o'zlashtiriladigan o'quv elementlarining to'plami va ular universitetning ta'lim dasturiga integratsiya qilinganligi ta'lim to'g'risidagi kelishuvda aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasida o'zlashtiriladigan kreditlar miqdori xorijda o'qish davriga (3 — 6 oy yoki 1 — 3 yil) mutanosib bo'lishi kerak. Universitet tomonidan mobillik davrida talabaning o'zlashtirgan (to'liq yoki qisman) kreditlari tan olinadi. Talaba universitetga qaytib kelgach, mobillik davrida to'plangan kreditlar miqdoridan kelib chiqqan holda amaldagi tartib-qoidalar asosida uni keyingi kursga o'tkazish yoki kursda qoldirish belgilanadi.

30. Universitet akademik mobillik dasturi bo'yicha rejalashtirilgan fanlarni o'zlashtirish uchun talabani belgilangan shakl asosida ro'yxatdan o'tkazadi va mobillik davrida ularni o'zlashtirish imkoniyatlari ta'minlanishi majburiyatini oladi.

31. Hamkor universitetlar, markazlar va tashkilotlar bilan birgalikda yo'lga qo'yilgan qo'shma ta'lim dasturlarida akademik mobillikni amalga oshirish mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa alohida ta'lim to'g'risidagi kelishuv tuzish zarur emas.

32. Ta'lim to'g'risidagi kelishuvga muvofiq akademik mobillik davrida talabaning bilim darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar universitetning baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvali asosida qabul qilinadi.

33. Stajirovkani o'tash bo'yicha kelishuv talaba, universitet va qabul qiluvchi tashkilot tomonidan uch tomonlama imzolalanadi.

34. Stajirovka davomida talaba tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning oshkoraligini ta'minlash va ularni tasdiqlash maqsadida qabul qiluvchi muassasa tomonidan stajirovkani o'taganlik to'g'risida sertifikat beriladi.

7-bob. Baholash, baholarni konvertatsiya qilish

35. Talabalar ta'lim dasturi doirasida o'qitish shaklidan qat'i nazar, talabalar bilimini baholash 100 ballik tizim asosida baholanadi.

Talabalar bilimi quyidagi jadvalda keltirilgan mezonlar asosida baholanadi.

Talabalar bilimini baholash mezonlari

5 baholik	100 ballik		Baholash mezonlari
5	90-100	a'lo	“Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega” deb topilganda
4	70-89,9	yaxshi	“Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega” deb topilganda
3	60-69,9	yetarli	“Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega” deb topilganda
2	0-59,9	qoniqarsiz	“Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi, fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas” deb topilganda

36. O'quv dasturida belgilangan baholash tartibi hamda ijobiy baholar doirasida baholangan talabalarga kreditlar beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi.

37. Baholash usullari fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi yozma, og'zaki, amaliy ish, loyiha, portfolio va nazoratlar kabi turlarni o'z ichiga qamrab oladi. Baholash mezonlari ta'lim olish natijasiga erishilganligini aks ettirishi shart.

38. Baholarni konvertatsiya qilish universitetning baholash tizimini boshqa xorijiy oliy ta'lim muassasasining baholash tizimi bilan qiyosiy taqqoslash jadvali asosida amalga oshiriladi.

1- Nazorat turlari va baholash mezonlari

Nazorat turlari

39. Universitetda talabalar bilimini nazorat qilish joriy (darslardagi faollik), oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash mezonlari va ballar taqsimoti fan sillabusida aniq qilib belgilangan bo'lishi shart.

40. Joriy nazorat (darslardagi faollik) ta'lim oluvchining modul mavzulari bo'yicha bilimi, amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalarni egallaganlik darajasini aniqlash va baholash usuli hisoblanadi. Joriy nazorat talaba tomonidan modul yoki fan mavzularini o'zlashtirganlik darajasini baholashga qaratiladi, shuningdek, o'quv materialini konstruktiv ravishda sharhlash va tahlil qilish, modulga oid ko'nikmalarini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalar (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallash, kasbiy amaliy ko'nikmalarni qo'llashga yo'naltirilgan muammoli vaziyatlarni hal etish, jamoada ishlash, prezentatsiyalar tayyorlash va h.k. larni baholashga qaratiladi.

Joriy nazorat (darslardagi faollik) 100 lik foiz ko‘rinishida baholanib boriladi hamda kunning o‘zida Hemis platformasiga kiritilishi shart.

41. Oraliq nazorat semestr davomida fanning o‘quv dasturining tegishli bo‘limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘tkaziladi.

Oraliq nazorat turi har bir fan bo‘yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda ikki martagacha o‘tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat turini o‘tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

Oraliq nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Semestr davomida haftasiga ikki akademik soatdan kam bo‘lgan fanlar bo‘yicha oraliq nazorat turi o‘tkazilmaydi.

Oraliq nazoratlar nazariy ta’lim haftasining **sakkizinchi haftasida** o‘tkaziladi. Agar fan doirasida ikkita oraliq nazorat belgilangan bo‘lsa, ikkinchi oraliq nazorat nazariy ta’lim haftasining **o‘n to‘rtinchi haftasida** o‘tkaziladi.

Yakuniy nazoratlar boshlangunga qadar oraliq nazoratni bir marta qayta topshirishga ruxsat beriladi.

42. Talabaning ma’ruza, amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha topshiriqlarni bajarilishi, shuningdek, uning ushbu mashg‘ulotlardagi faolligi fan o‘qituvchisi tomonidan baholab boriladi.

43. Mustaqil ta’lim topshiriqlari (o‘quv loyihasi, taqdimot, keys-stadi, masala yechish, axborot izlash, dayjest, kollokvium, esse, maqola, referat va boshq.) tegishli kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

44. Mustaqil ta’lim bo‘yicha bajarilgan topshiriqlar Hemis axborot tizimiga joylashtiriladigan antiplagiat dasturi asosida tekshirilib, fan o‘qituvchisi tomonidan baholanadi.

Joriy va oraliq nazorat uchun ajratilgan balning 60%i Hemis platformasida mustaqil ish topshiriqlari uchun ajratiladi.

Bunda, bajarilgan topshiriqning o‘ziga xosligi 60%dan kam bo‘lmasligi lozim, aks holda topshiriq baholash uchun qabul qilinmaydi.

45. Mustaqil ta’lim topshiriqlarining soni fanning xususiyatidan kelib chiqib, bitta fan(modul) bo‘yicha 3 tadan kam bo‘lmasligi lozim.

46. Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tegishli fan bo‘yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

47. Yakuniy nazorat turini o‘tkazish shakli tegishli fan bo‘yicha kafedra tomonidan belgilanadi.

48. Yakuniy nazoratlarni o‘tkazish grafigi Registrator ofisi tomonidan ishlab chiqiladi hamda Universitet rektori buyrug‘iga asosan o‘tkaziladi.

2-Talabalar bilimini baholash

52. Joriy va oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turlari bo'yicha talabaning bilimini baholash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish Registratori ofisi tomonidan amalga oshiriladi hamda hamda mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholashga o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchilar jalb etiladi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazishda kelishuv asosida boshqa oliy ta'lim muassasalarining tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchilari jalb qilinishi mumkin.

53. Universitetda nazorat turlarini o'tkazilishi tegishli universitetning ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan doimiy ravishda o'rganib boriladi. Bunda nazorat turlarini o'tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda, o'tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli nazorat turi qaytadan o'tkazilishi mumkin.

54. Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar Joriy nazorat, oraliq nazorat va mustaqil ta'lim topshiriqlarni topshirgan bo'lishi shart.

55. Joriy nazorat, oraliq nazorat va mustaqil ta'lim topshiriqlarni topshirmagan, shuningdek ushbu topshiriqlar va nazorat turi bo'yicha «0-29,9» ballar oralig'ida ball olgan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Shuningdek, bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, ushbu nazorat turi bo'yicha «0-29,9» oralig'ida ball olgan, shuningdek, uzrli sabablarsiz malakaviy amaliyotga qatnashmagan va malakaviy amaliyot bo'yicha «0-59,9» ballar oralig'ida ball olgan talaba akademik qarzidor hisoblanadi.

56. Talabani fan bo'yicha baholashda, umumiy ball (100 ballgacha) yakuniy nazorat (50 ballgacha), joriy va oraliq nazorat (50 ballgacha, shundan 10 bali talabaning kunlik darslardagi faolligi, 10 bali oraliq nazorat uchun va 30 bali mustaqil ish topshiriqlariga ajratiladi) ballarining yig'indisidan iborat bo'ladi.

57. Talaba uzrli sabablarga ko'ra joriy (darslardagi faollik, oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda, ushbu talabaga fakultet dekanining farmoyishi asosida tegishli nazorat turini qayta topshirishga ruxsat beriladi.

Malakaviy amaliyotdan akademik qarzidor talabalar tegishli kursda qoldiriladi. Istisnoli holatlarda malakaviy amaliyotda qatnashmagan talabalarga qayta topshirishga ruxsat beriladi.

58. Bir kunda 1 tadan ortiq fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish kamida 2 kun oralig'ida belgilanishi lozim.

59. Akademik qarzidor talaba ta'til vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qish huquqiga ega bo'ladi. Semestr va o'quv yili yakuni natijalari bo'yicha akademik qarzidorligi bor talaba o'qishdan chetlashtirilmaydi.

60. Baholash natijasidan norozi bo'lgan talabalar Apellyatsiya komissiyasiga apellyatsiya berish huquqiga ega.

61. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o'qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to'rt nafar a'zo kiritiladi.

62. Talaba baholash natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyatsiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyatsiya Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

63. Talabaning apellyatsiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

64. Apellyatsiya komissiyasi talabaning apellyatsiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmaganini ko'rsatiladi.

Apellyatsiya komissiyasi tegishli qarorni talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.

3-Baholash natijalarini qayd qilish tartibi

65. Talabalar bilimini baholash tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi tomonidan talabalarning fanlarni o'zlashtirishini hisobga olish elektron jurnalida (bundan buyon matnda - jurnal) qayd etib boriladi. Professor-o'qituvchi talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritadi.

Professor-o'qituvchi talabaga qo'yilgan baholarni shu kunning o'zida jurnalda qayd etib boradi. Agar talabaning bilimini baholash yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, professor-o'qituvchi baholash natijalarini 2 kundan ko'p bo'lmagan muddatda jurnalga qayd etishi lozim.

66. Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi «60» ball («3» baho) va undan yuqori ball bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

67. Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda jurnalga «o» belgisi yozib qo'yiladi.

68. Talabalar davomati hamda bilimini baholash natijalari Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarishning axborot tizimi – Hemis platformasi orqali amalga oshiriladi hamda ma'ulotlar universitet elektron bazasida saqlanadi. Elektron platforma ma'lumotlarining saqlanishiga Raqamli texnologiyalar markazi hamda Registrator ofisi mas'ul hisoblanadi.

69. Talabalarning yakuniy nazorat turi bo'yicha baholari Hemis platformasiga yakuniy nazorat o'tkazilgan vaqtdan boshlab ikki kun muddatda kiritilishi shart.

70. Yakuniy nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi «0-29,9» ball olganda ushbu ball talabaning elektron baholash daftariga yozilmaydi.

71. Axborot tizimiga (jumladan, elektron jurnalga ham) o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq ma'lumotlar kiritilishiga, shuningdek, undagi ball va boshqa ma'lumotlarga asossiz o'zgartirishlar kiritilmasligi uchun Registrator ofisi va tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi mas'ul hisoblanadi.

8-bob. Kredit-modul tizimida ro'yxatga olish xizmatini tashkil etish

72. Registrator ofisi ta'lim va talabalar bilimini baholash jarayonlarini alohida yuritish, talabalar haqidagi akademik ma'lumotlarni elektron tarzda avtomatik boshqarish hamda yakuniy nazoratlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

73. Registrator ofisi talabaga tanlagan yo'nalish va mutaxassisligi bo'yicha yuqori darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga erishishda yordam berishga qaratilgan bo'lib, quyidagi funksiyalarni qamrab oladi:

o'quv jarayoni jadvalini tuzish va u o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;

talabalarining fanlarga ro'yxatdan o'tishini nazorat qilish;

akademik guruhlarni shakllantirish;

talabalar harakatini muvofiqlashtirish;

oralik, yakuniy baholashlar va yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazilishini tashkil qilish;

dars jadvallarini shakllantirish;

ma'lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish;

ta'lim olayotgan talabalarining ma'lumotlarini arxivga qadar saqlash;

transkript formalarini shakllantirish va talabalarining ma'lumotlarini kiritish;

talabalar kontingenti bo'yicha statistikani yuritish;

yozgi semestr tashkil etish.

74. Registrator ofisi belgilangan jadvalga muvofiq talabalarni fanlarga ro'yxatdan o'tkazadi va talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantiradi. Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi ular tomonidan mustaqil ravishda guruh tyuteri yordamida o'quv rejasi va tanlov fanlari katalogi asosida umumiy o'qish davri uchun tuziladi. Shaxsiy ta'lim trayektoriyasiga har o'quv yilidan oldin o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

75. Talabalarining shaxsiy ta'lim trayektoriyasi asosida Registrator ofisi akademik guruhlarni shakllantiradi va biron-bir fanga yozilish yetarli bo'lmagan taqdirda, shaxsiy ta'lim trayektoriyasini o'zgartirish zarurligi to'g'risida talabalarga xabar beradi. Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi shakllantirib bo'lingandan so'ng Registrator ofisi o'quv yuklamalarni shakllantiradi hamda dars jadvalini tuzadi.

76. Registrator ofisi har bir talabani ro'yxatdan o'tkazish sanasi va vaqtini belgilaydi (odatda, talaba tomonidan yetarli GPA ko'rsatkichlarini to'plaganligi va kontrakt to'lovlari amalga oshirilganligiga qarab). Birinchi kurs talabalarini ro'yxatdan o'tkazish ular bilan akademik va kasbga yo'naltirish tadbirlari amalga oshirilganidan keyin boshlanadi.

77. Talabalar tanlagan fanlarini keyingi semestr boshlanishidan kamida bir hafta oldin o'zgartirishi mumkin.

78. Birinchi kurs talabalarini ro'yxatga olish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

guruh tyuteri ro'yxatga olish xizmatidan biriktirilgan guruh talabalarining login va parollarini oladi, talabaga ta'lim jarayonini tushuntiradi, ta'lim dasturi bilan tanishtiradi, login va parol beradi hamda talaba portalidan foydalanishni o'rgatadi;

talaba professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan fanlar bo'yicha tanishtiruv taqdimotlariga qatnashadi, majburiy va tanlov fanlari bilan tanishadi va fanlarga ta'limni boshqarish tizimidagi talaba portali orqali ro'yxatdan o'tadi;

talaba ta'limni boshqarish tizimidagi portali orqali dars jadvalini aniqlaydi va darslarga qatnashadi.

9-bob. Talabalarni o'qishdan chetlashtirish, qayta tiklash, kursdan kursga o'tkazish mexanizmlari

79. Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqarsiz baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Istisno tariqasida akademik ta'tildan qaytgan yoki o'qishini tiklagan talabalar uchun o'quv rejalaridagi fanlar farqi aniqlangan taqdirda (to'plagan kreditlari to'liq tan olinadi) mazkur fanlarni o'zlashtirish uchun shaxsiy grafikka asosan **bir marta bepul qayta topshirishga** ruxsat beriladi.

80. Belgilangan muddat davomida ham fanlarni o'zlashtira olmagan (akademik qarzdor) talabalar ta'til vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qish huquqiga ega bo'ladi.

81. Xorijiy, nodavlat va davlat ta'lim muassasalaridan hamda Universitet doirasida bir ta'lim yo'nalishidan boshqa ta'lim yo'nalishiga o'qishini ko'chirishga tavsiya etilgan talabalarining fanlar farqi 30 kreditdan oshmagan holda yozgi semestr vaqtida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qish sharti bilan o'qishini ko'chirishga ruxsat beriladi.

82. Talabani kursdan-kursga o'tkazish uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Universitetda talabalarni kursdan kursga o'tkazishda GPA ko'rsatkichi 2,6 ballni tashkil etadi. GPA o'tish ballini to'play olmagan talaba qayta o'qish uchun tegishli kursda qoldiriladi. Semestr va o'quv yili yakuni natijalari bo'yicha akademik qarzdorligi bor talabalar o'qishdan chetlashtirilmaydi. Kursdan kursga qolgan talabalar faqat qarzdor bo'lgan fanlarni o'zlashtirib ularga mos ravishda shartnoma mablag'larini to'laydi.

GPA ko'rsatkichini hisoblashda talaba tahsil olgan kurs yakuniga ko'ra qayta topshirish natijalari ham inobatga olinadi.

Talaba malakaviy amaliyotga qatnashmagan yoki malakaviy amaliyot yakunlari bo'yicha qoniqarsiz baho bilan baholangan hollarda, u akademik qarzдор hisoblanadi va GPA ko'rsatkichidan qat'iy nazar kursdan qoldiriladi.

Jami ta'lim olish muddati bakalavriat uchun 1 kursga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 8 yilgacha, magistratura uchun 1 kursga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 4 yilgacha deb belgilanadi.

83. Talaba O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari asosida o'qishni qayta tiklash va ko'chirish huquqiga ega. Talaba tomonidan chetlashtirilgunga qadar o'zlashtirgan kreditlar miqdori universitet tomonidan to'liq hajmda hisobga olinadi.

84. Xorijiy, nodavlat va davlat oliy ta'lim muassasalaridan o'qishini ko'chirishga tavsiya etilgan talabalarning fanlar farqini belgilashda hamda tegishli kursga qabul qilishda Universitet belgilagan GPA ko'rsatkichiga qat'iy amal qilinadi.

Xorijiy va nodavlat oliy ta'lim muassasalari GPA ko'rsatkichlari mazkur qoidalarining 4-bandiga asosan konvertatsiya qilinadi.

Universitet GPA ko'rsatkichidan past GPA ko'rsatkichi to'plagan xorijiy, nodavlat va davlat oliy ta'lim muassasalaridan o'qishini ko'chirishga tavsiya etilgan talabalar bir kurs pastga qabul qilinadi hamda fanlar farqi ham bir kurs pastgi o'quv rejasi asosida belgilaniladi.

85. Xorijiy, nodavlat va davlat oliy ta'lim muassasalaridan o'qishini ko'chirishga tavsiya etilgan talabalarning fanlar farqini 30 kreditdan oshgan taqdirda 1 kurs pastga tushiriladi.

86. Universitet doirasida o'qishini ichki turdosh yo'nalishga ko'chirish bo'yicha murojaat qilgan talabalarning fanlar farqi 30 kreditdan oshmagan taqdirda o'qishini ko'chirishga ruxsat beriladi.

Kechgi va sirtqi ta'lim shaklidan kunduzgi ta'lim shakliga o'qishini ko'chirishga ruxsat berilmaydi.

Xorijiy, nodavlat hamda davlat oliy ta'lim muassasalaridan o'qishini ko'chirishga tavsiya etilgan talabalarga aniqlangan fanlar farqini joriy o'quv yilining o'zida qayta o'qish sharti bilan talabalar safiga qabul qilishga ruxsat beriladi.

87. Talaba Universitet ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda, unga akademik darajasini tasdiqlaydigan diplom beriladi.

10. Yakunlovchi qoidalar

Mazkur Tartibda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida hal etiladi.

Ta'lim jarayonini tashkil etish va talabalar bilimini nazorat qilish to'g'risidagi akademik qoidalarga 1-ilova

Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi

Ta'lim oluvchining shaxsiy kodi		
Familiyasi		
Ismi		
Sharifi		
Ta'lim yo'nalishi / mutaxassisligi		
O'quv yili		
Uy manzili		
Telefon raqami		
Muassisning F.I.Sh.		
Kafedra		
Telefon raqami		
Majburiy fanlar	Tanlov fanlari	
	E'lon qilingani	Muqobili
1.	1.	1.
2.	2.	2.
3.	3.	3.
4.	4.	4.

Ta'lim jarayonini tashkil etish va talabalar bilimni nazorat qilish to'g'risidagi akademik qoidalarga 2-ilova

Akademik qarzdor talaba tomonidan akademik qarzlarni topshirish (qayta o'zlashtirish) maqsadida Universitet rektoriga murojaati yuzasidan ariza namunasi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

rektori _____ ga

(fakultet)

(yo'nalish)

(bosqich)

Talabasi _____

_____ dan
(Talabaning F.I.SH)

Ariza

Menga 20_/20_ o'quv yili natijasi bo'yicha _____

_____ fani (fanlar)dan akademik qarzlarni topshirish maqsadida qo'shimcha semestrda o'zlashtirilmagan (o'zlashtirilmagan kreditlar miqdori) fanlarni o'z hisobimdan qayta o'qishga ruxsat berishingizni so'rayman.

(imzo)

(sana)

(Talabaning F.I.SH.)

Ta'lim jarayonini tashkil etish va talabalar bilimni nazorat qilish to'g'risidagi akademik qoidalarga 3-ilova

Fanlar katalogi

№	Fanning kodi*	Fanning nomi	Fanning qisqa tavsifi	Kreditlar miqdori	Semestr	Professor-o'qituvchilar: F.I.SH., ilmiy unvoni va ilmiy darajasi
Majburiy fanlar						
Tanlov fanlari						

Izoh:

- * - Fan kodi quyidagicha belgilanadi: fanning qisqartirilgan nomi, majburiy yoki tanlovligi (majburiy fan - 1, tanlov fani - 2), o'qitiladigan semestr(lar), ajratilgan umumiy kredit miqdori. Masalan: "XT1108" - XT - "Xorijiy til" fani, 1 - majburiy fan, 1 - birinchi semestrda o'qitiladi; 08 - fanga ajratilgan umumiy kredit miqdori;
- O'quv rejasi va fanlar katalogiga mos ravishda talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi shakllantiriladi.

Ta'lim jarayonini tashkil etish va talabalar bilimni nazorat qilish to'g'risidagi akademik qoidalarga 4-ilova

Ta'lim to'g'risidagi kelishuvda aks ettirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar

- talabaning F.I.SH. va bog'lanish ma'lumotlari;
- universitet va talabani qabul qilayotgan ta'lim muassasasi mas'ul shaxslarining F.I.SH. va bog'lanish ma'lumotlari;
- universitetda talabaning ta'lim yo'nalishi/mutaxassisligi;
- o'qish davri (qisqa, birinchi, ikkinchi/uchinchi);
- qabul qilayotgan muassasada o'qish davri (boshlanish va tugash vaqti);
- xorijda o'qish dasturi: qabul qilayotgan ta'lim muassasada o'qish rejalashtirilgan ta'lim elementlarining kreditlar ko'rsatilgan fanlar katalogiga iqtibos;
- muvaffaqiyatli mobillik davri natijasida universitetda kredit sifatida qabul qilinadigan ta'lim elementlari;
- uch tomonlama kelishuv (talaba, OTM va qabul qilayotgan ta'lim muassasasi).

Ta'lim jarayonini tashkil etish va talabalar bilimni nazorat qilish to'g'risidagi akademik qoidalarga 5-ilova

Transkript

F.I.SH. /Full name:		
Tug'ilgan sanasi / Date of birth		
Akademik daraja / Degree course		
Fakultet / College:		
Yo'nalish / Department:		
O'qishga qabul qilingan sanasi / Date of admission:		
Ta'lim oluvchining maqomi / Student status		
O'qishini tamomlagan sanasi / Date of graduation		
Fan kodi / Fan nomi / Subject	Kreditlar / Credits / ECTS da ifodalanishi	Ball / Grade
1.		
2.		
3.		
4.		
Baholash tizimi / Grading system:	Jami kreditlar miqdori / Total credits	O'rtacha ball / GPA
A = 4.26 – 4.5 (86 – 90); A+ = 4.51 – 5.0 (91 – 100);		
B = 3.51 – 4.0 (71 – 80); B+ = 4.01 – 4.25 (81 – 85);		
C = 3.0 – 3.25 (60 – 65); C+ = 3.26 – 3.5 (66 – 70).		

Ta'lim to'g'risidagi ma'lumotnomada aks ettirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar

- talabaning F.I.SH.;
- identifikatsiya qilish va bog'lanish ma'lumotlari;
- talabaning ta'lim yo'nalishi va dastur nomi;
- joriy o'quv yili;
- qabul qiluvchi ta'lim muassasasida talaba tomonidan o'zlashtirilgan ta'lim elementlari (kreditlar miqdori va mahalliy baholash shkalasi);
- baholash tizimi;
- berilgan sana va mas'ul shaxsning imzosi.

Stajirovkani o'tash to'g'risidagi sertifikatda aks ettirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar

- talabaning F.I.SH.;
- tashkilot nomi;
- tashkilot bilan bog'lanish uchun ma'lumot (manzil, telefon raqami, elektron-manzil, veb-sayt);
- tashkilot tipi;
- stajirovkani o'tash muddatining boshlanishi va tugash sanasi;
- stajirovkaning batafsil dasturi, vazifalar ro'yxati;
- o'zlashtirilgan bilimlar, ko'nikmalar va kompetensiyalar;
- talabaning ishiga qo'yilgan baho;
- berilgan sana va mas'ul shaxsning imzosi.

Baholashni 100 ballik shkaladan 5 baholik shkalaga o'tkazish

JADVALI

5 ballik shkala	100 ballik shkala	5 ballik shkala	100 ballik shkala	5 ballik shkala	100 ballik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,0	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

Jizzax davlat pedagogika universitetida talabalar o'zlashtirishini baholash tizimlarini qiyosiy taqqoslash
JADVALI

O‘zbekiston tizimi (5 baholik)	Rossiya tizimi (MDU)*	Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS — European Credit Transfer System)	Amerika tizimi (A- F)	Britaniya tizimi (%)	Yaponiya tizimi (%)	Koreya tizimi (%)	O‘zbekiston tizimi (100 ballik)
«5»	«5»	«A»	«A+»	70 — 100	80 — 100	90 — 100	90 — 100
			«A»				
			«A-»	65 — 69			
«4»	«4»	«B»	«B+»	60 — 64	70 — 79	80 — 89	70 — 89,9
		«C»	«B»	50 — 59			
			«B-»				
«3»	«3»	«D»	«C+»	45 — 49	60 — 69	70 — 79	60 — 69,9
		«E»	«C»	40 — 44		60 — 69	
			«C-»				
			«D+»				
			«D»				
			«D-»				
«2»	«2»	«FX»	«F»	0 — 39	0 — 59	0 — 59	0 — 59,9
		«F»					

Stajirovka o'tash bo'yicha kelishuvda aks ettirilishi tavsiya etilgan ma'lumotlar

- talabaning F.I.SH. va bog'lanish ma'lumotlari;
- Universitet va qabul qilayotgan tashkilot mas'ul shaxslarining F.I.SH. va bog'lanish ma'lumotlari;
- ta'lim yo'nalishi nomi va kodi;
- ta'lim sikli (qisqa, birinchi, ikkinchi/uchinchi);
- tashkilot tipi (kompaniya): xususiy, davlat va boshqalar;
- qabul qiluvchi muassasada o'qish davri (boshlanish va tugash vaqti) va kreditlar miqdori;
- stajirovka yakunida kutilayotgan ta'lim olish natijalari;
- kreditlar miqdorini o'zida aks ettirgan stajirovka dasturining batafsil tafsiloti;
- haftalik ish soatlari miqdori;
- stajirovkani o'tash uchun talabaning til bilish darajasi;
- monitoring tartibi va baholash jarayoni;
- stajirovkani o'tash bo'yicha kelishuvga o'zgartirish kiritish tartibi;
- Universitetda stajirovka natijasini tan olish tartibi;
- uch tomonlama kelishuv (talaba, Universitet va qabul qilayotgan tashkilot).

Ta'lim jarayonini tashkil etish va talabalar bilimni nazorat qilish to'g'risidagi akademik qoidalariga 10-ilova

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
BAHOLASH QAYDNOMASI № _____

Fakultet: Semestr: Guruh:

Fan:

Fan o'qituvchilari:

Yakuniy nazorat mas'uli:

Semestrda fanga ajratilgan umumiy soatlar/kredit:

Yakuniy nazorat/qayta topshirish o'tkazilgan sana:

№	Talabaning famiyasi, ismi, sharifi	Reyting daftar- chasining raqami	Semestrda to'plagan ballari			YN	O'zlashtirish ko'rsatkichi	Baho	YN o'tkazgan o'qituvchi imzosi
			Σ JN	Σ ON	Σ JN+Σ ON				
1.									
2.									
3.									
4.									
5.									
6.									
7.									
8.									
9.									
10.									
11.									
12.									
13.									
14.									
15.									
16.									
17.									
18.									
19.									
20.									
21.									

22.									
23.									
24.									
25.									
26.									
27.									
28.									
ON va YN o'tkazgan professor-o'qituvchi imzosi									


Jami talabalar soni: 28, shundan: "5": 0, "4": 0, "3": 0, "2": 0, Kelmadi: 0

Fakultet dekani _____


Kafedra mudiri _____


Taklif kiritdi:


O'quv-uslubiy ta'minot bo'limi
boshlig'i

 A. Abduraxmonov

Kelishildi:


O'quv ishlari bo'yicha prorektor
 B. To'xtamishev
Yoshlar masalalari va ma'naviy-
ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi
prorektor

 S. Nazarqosimov
Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha
prorektor


 F. To'rayev
Registrator ofisi boshlig'i

 X. Xamzayev

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
boshlig'i

 Sh. Abduraimov

Yuriskonsult

 A. Aliqulov